



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik
korxonalar




Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 728,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **518,4** mlrd. so'mni (**7,6 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 209,9** mlrd. so'mni (**7,7 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 000,6** mlrd. so'mni (**11,5 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 728,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86,1 %** va yirik korxonalar hissasiga **13,9 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **27,0 %** ulush bilan **1 005,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.
1 005,4

Zomin
509,5

G'allaorol
264,4

Paxtakor
134,3

Mirzacho'l
92,0

Arnasoy
75,4


ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **36,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Zafarobod
56,6

Yangiobod
36,1

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 680,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,5 %), Forish (97,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	3728,3	107,7	518,4	107,6	3209,9	107,7
Jizzax sh.	1005,4	100,1	118,5	53,6	886,9	113,2
<i>tumanlar:</i>			0,0			
Arnasoy	75,4	104,7	0,9	137,2	74,5	104,4
Baxmal	611,0	137,8	353,2	166,1	257,7	111,7
G'allaorol	264,4	105,2	6,6	150,4	257,8	104,4
Sharof Rashidov	578,5	101,5	0,9	127,3	577,7	101,5
Do'stlik	111,7	104,1	4,2	143,6	107,5	103,0
Zomin	509,5	104,2	18,7	114,0	490,8	103,9
Zarbdor	128,8	122,8	3,4	155,8	125,4	122,1
Zafarobod	56,6	100,1	1,0	149,2	55,6	99,5
Mirzacho'l	92,0	106,4	2,8	133,7	89,2	105,8
Paxtakor	134,3	105,7	4,5	29,7	129,8	116,1
Forish	124,6	107,8	3,1	126,4	121,5	107,4
Yangiobod	36,1	103,6	0,7	127,0	35,4	103,3

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,6 %** ga oshdi va **518,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 209,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,1 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,5 %), Forish (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (11,8 %), Paxtakor (3,4 %), Baxmal (57,8 %), Zomin (3,7 %) va Do'stlik (3,8 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 629,8 ming so'm (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,5 % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (5 542,4 ming so'm), Baxmal (3 813,7 ming so'm), Zomin (3 034,5 ming so'm) va Sharof Rashidov (2 539,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	2629,8	105,5
Jizzax sh.	5542,4	98,4
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1615,3	103,1
Baxmal	3813,7	134,9
G'allaorol	1503,4	103,0
Sharof Rashidov	2539,6	98,8
Do'stlik	1672,1	102,4
Zomin	3034,5	102,0
Zarbdor	1454,0	119,8
Zafarobod	1115,9	98,7
Mirzacho'l	1741,9	104,6
Paxtakor	1764,7	103,7
Forish	1324,1	106,2
Yangiobod	1258,3	101,8

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **676,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **36,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **192,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **5,6 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **484,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **19,3 %** ga oshdi) .

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyun oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **192,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **484,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	676,9	136,9	192,5	105,2	484,4	123,3
Jizzax sh.	148,7	187,2	148,7	96,3	0,0	86,9
tumanlar:	0,0		0,0		0,0	0
Arnasoy	21,0	117,4	4,4	104,1	17,5	118,9
Baxmal	94,3	151,9	12,5	220,9	131,7	113,7
G'allaorol	69,2	109,0	16,1	53,6	49,0	156,6
Sharof Rashidov	75,5	96,3	0,0	0,0	75,5	136,4
Do'stlik	21,2	118,8	12,1	71,9	28,1	127,7
Zomin	104,0	125,1	33,0	76,4	71,1	189,0
Zarbdor	47,9	184,9	6,1	84,7	45,7	137,6
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0
Mirzacho'l	18,9	127,0	7,0	100,7	10,8	115,4
Paxtakor	34,8	196,2	9,1	99,0	62,7	120,6
Forish	29,2	123,3	11,3	98,9	17,7	124
Yangiobod	12,2	123,1	1,2	63,5	11,0	102,3

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,4 mlrd.
so'm

Tuzlamalar



59,5
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



5,3
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

32,5
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



8,1
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

14,7
mlrd. so'm



Tuxum

24,4
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

6,9
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

1,4
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **192,5 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**59,5 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.

4,2
mlrd. so'm



Ziravorlar

16,4
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **484,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **338,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **134,3** mlrd. so'mni, otlar **9,5** mlrd. so'mni, parrandalar **2,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **58,7 mlrd. so‘mga** yetdi va 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **1,1 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	58668,2	101,1	58668,2	101,1
Jizzax sh.	28681,4	101,2	28681,4	101,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	419,8	103,6	419,8	103,6
Baxmal	1108,6	103,4	1108,6	103,4
G‘allaorol	3601,7	105,5	3601,7	105,5
Sh. Rashidov	10405,4	106,0	10405,4	106,0
Do‘stlik	2001,9	105,5	2001,9	105,5
Zomin	4044,9	78,9	4044,9	78,9
Zarbdor	1819,7	105,8	1819,7	105,8
Zafarobod	531,0	104,4	531,0	104,4
Mirzacho‘l	2296,7	106,3	2296,7	106,3
Paxtakor	1915,5	105,8	1915,5	105,8
Forish	1482,0	105,4	1482,0	105,4
Yangiobod	359,5	104,8	359,5	104,8

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **986,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **257,9** mlrd. so'mni (**12,2 %** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **728,4** mlrd. so'mni (**0,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**137,3 %**), Baxmal (**235,4 %**) va Do'stlik (**450,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	986280,2	102,1	257860,6	112,2	728419,5	99,0
Jizzax sh.	544565,0	106,2	135126,4	137,3	409438,5	98,9
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	1661,3	15,5	35,5	0,4	1625,7	96,7
Baxmal	84354,2	185,3	67721,3	235,4	16632,9	99,3
G'allaorol	25216,6	102,9	139,3	19,3	25077,3	105,4
Sh. Rashidov	56981,7	81,4	49,7	0,4	56931,9	97,1
Do'stlik	97239,8	187,2	53971,5	450,4	43268,3	108,3
Zomin	94135,9	93,2	23,5	0,5	94112,4	97,9
Zarbdor	11951,1	34,7	13,3	0,1	11937,8	96,5
Zafarobod	6449,2	31,6	165,4	1,2	6283,8	94,7
Mirzacho'l	2365,8	13,5	85,8	0,6	2280,0	95,7
Paxtakor	8857,5	40,1	215,8	1,6	8641,8	98,0
Forish	48007,8	95,5	267,3	132,8	47740,5	95,4
Yangiobod	4494,4	93,4	45,8	39,2	4448,7	94,8

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **728,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,1** % ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **73,9** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0** %), Yangiobod (**99,0** %), G'allaorol (**99,4** %), Forish (**99,4** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**19,7** %), Do'stlik (**44,5** %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26